

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.PED.180.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XURRAMOVA SANOBAR MAXMATMUROD QIZI

**TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ona tilini o‘qitish metodikasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**The contents of the abstract of doctor of philosophy
(PhD) dissertation on pedagogical sciences**

Xurramova Sanobar Maxmatmurod qizi

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (ona tilini o'qitish metodikasi fani misolida).....5

Хуррамова Санобар дочь Махматмурата

Совершенствование методики развития критического мышления студентов (на примере предмета методика преподавания родного языка).....21

Khurramova Sanobar, daughter of Mahmatmurat

Improving the methodology for developing critical thinking in students (on the example of the subject of native language teaching methodology).....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.PED.180.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XURRAMOVA SANOBAR MAXMATMUROD QIZI

**TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ona tilini o‘qitish metodikasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped7193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.terspi.uz) hamda Ziyonet axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Qutlug'-Bek Bekturodovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Eshmuminov Asqar Allanazarovich

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instetuti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz tuman. "Yangiobod" MFY At-Termiziy ko'chasi, 1-A uy. Tel.: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: (terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz tuman. "Yangiobod" MFY At-Termiziy ko'chasi, 1-A uy. Tel.: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: (terdpi@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.A.Kuldasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

M.K.Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

O'.N. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy oliy ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada innovatsion yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish va uni o'quv jarayoniga samarali qo'llash ustida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. YUNESKOning ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA) global harakat, ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millenium Development Goals (MDG)¹ doirasida malakali kadrlarni ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, insonlarning fikrlashi, dunyoqarashi va ta'limga bo'lgan munosabati asosida jamiyat hayotida ma'naviy yuksalishini jadallashtirish bo'yicha amaliy ishlar tizimli olib borilmoqda.

Dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari tajribasiga ko'ra, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: integratsiyalashgan va differensiallashgan ta'lim asosida talabalarining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, integrativ va innovatsion texnologiyalarga tayanib talabalarda kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, pedagogik ta'limda talabalar bilimni baholashning zamonaviy usullarini tadqiq etish, ta'lim jarayonida axborot va variativ ta'lim modellaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish. shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalariga muvofiq tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlarini aniqlash, shaxsiy qarash va taxminlarni aniq faktlardan ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash hamda mantiqiy dalil va asosli isbotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi qator ilmiy izlanishlar obyekti sifatida belgilangan. Xususan, ona tilini o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlarida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib ma'naviy etuk va jahon andozalari talabalariga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash, ularni ijodiy izlanishga hamda ishlashga yo'naltirish, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs qilib tayyorlash, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va topish, aqliy mehnat madaniyatini, mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari² sifatida belgilangan. Bu esa, talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va bosqichlari, uning tarkibiy komponentlari va pedagogik parametrlarini aniqlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ona tili darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirish va innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston

¹ UN, Secretary-General, (6 September 2001). "Road map towards the implementation of the United Nations Millennium Declaration: Report of the Secretary-General". United Nations. Retrieved, 27 April, 2021. https://en.wikipedia.org/wiki/Millennium_Development_Goals

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019-y.

Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari hamda shuningdek sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, N.Petrosyan, Z.Nasimova o'zining ilmiy ishlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali til yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalarini chuqur o'rgangan. Sh.Islomjonov va A.To'ychiyevlar esa ingliz tilini o'qitishda talabalarining tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish metodikasini tadqiq etgan. S.G'ulomov o'z tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashga "dalillarni eslab qolish va g'oyalarni isbotlash" deb ta'rif beradi. Sh.Ismoiljonov "Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va uning ahamiyati" haqida izlanishlar olib borgan. Bundan tashqari, M.Omonova D.Tadjiboyeva, G.Mamasaidova, N.Kadirova, G.Akramova, M.Maxammatova kabi olimlarning ishlari ham mavzuga katta hissa qo'shgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari A.Lipkina, B.Teplov, F.Uzturk, L.Xoxlova, M.Klarin, V.Mushtavinskaya, Y.Samarin, O.Ozkaya, O.Miraz, S.Nuriye va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari atroflicha o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o'quvchilarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ta'lim usullari va metodlari o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan hamda tanqidiy fikrlashning ta'limdagi o'rni va uni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijlik olimlar yoshlarning tanqidiy fikrlash metodikasi rivojlantirish doimiy e'tibor markazida turgan. D.Garrison, H.Kanuka, G. Hove, M.Harun Ar-Rashid, Nada J. Alsaleh, C.Pescatore, R.Ennis. V.Ruggiero, A.Thein, T.Oldakowski, D.Sloanlarning ilmiy ishlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish masalalari shaxsda ijodkorlik, o'z-o'zini namoyon qilish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish muammolari bilan mantiqiy bog'liqlikda tadqiq etilgan.

Biroq, shaxsga yo'naltirilgan didaktik tizimda talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish mazmuni, tuzilmasi, pedagogik parametrlari, tanqidiy fikrlashning umumiy unikal xususiyatlarini aniqlashtirish, variativ yondashuv asosida

talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishini olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi PZ-202004165 raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" (2021-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ona tilini o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlarida talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritib berish;

talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

"Ona tilini o'qitish metodikasi" fanida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvga asoslangan pedagogik modelni takomillashtirish;

"Ona tilini o'qitish metodikasi" fanida innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning tanqidiy fikrlashini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida ona tilini o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika institutlaridan jami 616 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini ona tilini o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi, modeli, shakl, metod, va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy taqqoslash), diagnostika (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tasniflash), test topshiriqlari, o'qituvchilar va, pedagogik tajriba-sinov (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalar, rasm, sxema, jadval va grafik tasvirlash va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodikasining nazariy-metodologik asoslari pedagogik loyihalashtirish, moslashuvchanlik, variativlilik, qat'iyatlilik, metakognitivlik, optimal yechimlarni tanlash kabi kasbiy xususiyatlarga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni o'z fikrini modellashtirish, uni yangi vaziyatlarga moslashtirish, noaniqlikni bartaraf etish hamda dalillarga asoslangan holda qaror qabul qilish xususiyatlarining raddiya usulidan

foydalanib kognitiv faollikni o‘stirish, reflektiv tafakkur bilan ichki aloqadorligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik modeli motivatsion, kognitiv, faoliyatli va reflektiv komponentlarni rivojlantirish tizimi bilan o‘quv faoliyati funksiyalarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish metodikasi kognitiv faollikni ta’minlash, o‘zida ishonch hissini hosil qilish hamda umumiy xulosalar ishlab chiqish kabi mexanizmlarni RKCHP texnologiyalariga tatbiq etish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha takomillashtirilgan metodika ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida qo‘llash uchun mo‘ljallangan innovatsion o‘qitish usullari va texnologiyalari yaratildi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida foydalanish uchun interaktiv mashqlar va o‘yinlar to‘plami tuzildi;

“Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” nomli metodik qo‘llanma nashr qilingan;

talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash uchun yangi mezonlar va usullar joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo‘llangan yondashuv, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, rasmiy manbalardan nazariy ma’lumotlarning olinganligi, keltirilgan tahlillar, matematik-statistik metodlar vositasida tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalar orqali ommalashtirilganligida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlaridan foydalanib tanqidiy fikrlashini rivojlantirish shakllantirish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-tuzilmaviy model ishlab chiqilgani;

Oliy ta’lim muassasalarining 60110500 – Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tadqiqotchi tomonidan takomillashtirilgan “Blum taksonomiyasi” va “RKCHP” texnologiyasi orqali “Fishbone”, “Klaster”, “G‘oyalar savati”, “Challenge” kabi turli kabi metodlar hamda “The technology of teaching critical thinking to future teachers from the mother tongue (Techoftec) va Development of critical thinking in students’ native language” (Docthis) elektron dastur uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining № DGU 43218 va № DGU 43219 raqamli ma’lumotnomalari hamda metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi. “Pedagogik ta’lim jarayonida talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish metodlari” nomli o‘quv-qo‘llanma hamda “Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” nomli monografiya va “Talabalarni tanqidiy fikrlashning shakllanganlik mezonlarning ba’zi jihatlari”. Ilmiy maqola. (Ilm-sarchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal / –

Urganch, 2025-y. fevral. 2-son – B. 162-165), “Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari”, Ilmiy maqola. (Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. – Buxoro, 2024 y. – B. 104-108.) kabi ilmiy-uslubiy ishlari o‘qituvchilarda ham, talabalarda ham yaxshi taassurot qoldirdi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida “Rad etish usullari”, “Menga so‘z bering” va “Mening fikrim” mazmunidagi diagnostik materiallar bilan boyitilgan metodika hamda anketa so‘rovnomalari, “Bloom taksonomiyasi” “RKCHP” texnologiyasi”, kabi metodlar, interaktiv resurslar, krossvordlar, intellektual o‘yinlari talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning “Ona tilini o‘qitish metodikasi” fani mashg‘ulotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik va amaliy takliflar asosida: talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish metodikasining nazariy-metodologik asoslari pedagogik loyihalashtirish, moslashuvchanlik, variativlik, qat’iyatlik, metakognitivlik, optimal yechimlarni tanlash kabi kasbiy xususiyatlarga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga oid takliflardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 17-fevraldagi 02/01-01-63-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarga ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida tanqidiy fikrlashi takomillashtirilgan o‘quv dasturlari, darsliklar, metodik qo‘llanmalar mazmuniga singdirilgan;

talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni o‘z fikrini modellashtirish, uni yangi vaziyatlarga moslashtirish, noaniqlikni bartaraf etish hamda dalillarga asoslangan holda qaror qabul qilish xususiyatlarining raddiya usulidan foydalanib kognitiv faollikni o‘stirish, reflektiv tafakkur bilan ichki aloqadorligini ta’minlash asosida aniqlashtirilganga oid ma’lumotlar Termiz davlat universiteti tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari” (2022-2024-yy) mavzusi doirasida amaliy tadqiqot loyihasi mazmuniga singdirilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 12-sentabrdagi 02/12-3406-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim talabalarini o‘quv-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan; mazkur yondashuv va natijalar talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning sifat va samaradorligi ta’minlagan;

ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik modeli motivatsion, kognitiv, faoliyatli va reflektiv komponentlarni rivojlantirish tizimi bilan o‘quv faoliyati funksiyalarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan taklif va tavsiyalaridan Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2022-2024 yillarda bajarilgan 574099-EPP-1-2022-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER – “Hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta’minlash” mavzusidagi xalqaro loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 12-sentabrdagi 02/12-3407-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini

takomillashtirish jamoaga o'z fikrini bildira olish va nutq so'zlashuv texnologiyalari tizimini takomillashtirishga erishilgan;

ona tilini o'qitish metodikasi fani orqali talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodikasi tanqidiy tafakkur yuritishning tanqidiy fikr yuritish uchun imkoniyat berish; kognitiv faollikni ta'minlash; o'ziga ishonch hissini hosil qilish; tanqidiy mulohazalar yuzaga kelishini qadrlash kabi mexanizmlarini ona tili o'qitishning RKChP texnologiyalariga tatbiq etish orqali takomillashtirilganligiga oid taklif va tavsiyalarga oid ma'lumotlardan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 17-fevraldagi 02/01-01-63-son ma'lumotnomasi) Natijada, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 11 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 6 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda nashr qilingan. Dissertatsiya natijalari asosida ishlab chiqilgan 2 ta virtual elektron dasturga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 2 ta mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekt, predmet, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida shaxs tanqidiy tafakkurini rivojlantirish jarayonining mazmuni va mohiyati, pedagogik ta'lim jarayonida talabalar tanqidiy fikrlash jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari, talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda metodik fanlarning ahamiyati va tadqiqot mavzusiga doir mamlakatimiz, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy ishlari tahlili yoritilgan.

Shaxs tanqidiy tafakkurini rivojlantirish bugungi oliy ta'lim tizimining strategik maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tanqidiy fikrlash shaxsning bilim va tajribalarni ongli tahlil qilish, dalillarga asoslangan holda xulosa chiqarish va alternativ qarashlarni baholash qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi yuqori kognitiv jarayon sifatida

namoyon bo‘ladi. Bu ko‘nikma zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodning intellektual va kasbiy tayyorgarligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmonida talabalarda mustaqil va keng qamrovli tafakkurni shakllantirish oliy ta‘limning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Tanqidiy tafakkur nafaqat akademik jarayon, balki kasbiy tayyorgarlikning ham markazida turadi. Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar (OECD, UNESCO)da tanqidiy fikrlash XXI asr kompetensiyalari ichida ustun o‘rin tutuvchi ko‘nikma sifatida e‘tirof etiladi.

Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Xorazmiyning ilmiy merosida ham tanqidiy fikrlashning tarixiy-madaniy ildizlari asoslab berilgan. G‘arb olimlari – R. Ennis, E. Glaser, V. Ruggiero, V. Richardlar bu jarayonni nazariy va amaliy jihatdan izchil tadqiq qilganlar. Psixologik nuqtai nazardan esa, tanqidiy fikrlash tafakkurning reflektiv va baholovchi tabiati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu fikr L.Rubinshteyn, B.Zeygarnik, E.G‘oziyev va D.Halpernlar tomonidan asoslab berilgan.

Tanqidiy tafakkur – bu doimiy rivojlanuvchi tafakkur jarayoni bo‘lib, unda kognitiv, affektiv va metakognitiv mexanizmlar uyg‘unlashadi. Bu jarayon shaxsning mantiqiy izchillik, mustaqil fikr yuritish, dalillar asosida xulosa chiqarish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, debatlar, klaster va loyihaviy yondashuvlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi psixologik-pedagogik omillar, didaktik sharoitlar, metodik asoslar chuqur tahlil qilindi. Bunda, ayniqsa, Bloom taksonomiyasi asosida yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini shakllantirish, RKCHP texnologiyasi orqali muammoli topshiriqlar asosida tanqidiy fikr yuritishga o‘rgatishning samaradorligi tajribaviy sinov asosida tasdiqlandi.

Metodik fanlarning tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni alohida ta‘kidlandi. “Ona tilini o‘qitish metodikasi”, “Adabiyot metodikasi”, “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanlari doirasida talabalar matn tahlili, semantik tahlil, kontekstual fikrlash va lingvomadaniy kompetensiyalar asosida fikr yuritishga o‘rgatildi. Metodik fanlar orqali “keys-study”, “debat”, “project-based learning” texnologiyalari qo‘llanilishi natijasida talabalar mustaqil qaror qabul qilish, fikrni himoya qilish va dalillar asosida muhokama qilish kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

Shuningdek, ona tili va tilshunoslik fanlarida tanqidiy fikrlash til va madaniyat, ijtimoiy tafakkur va lingvomadaniy identifikatsiyani anglash vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Tilshunoslikda etnolingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotida V.Agapov, J.Dewey, D.Halpern, R.Paul, L.Elder, James Gee, J.Barrell va boshqa tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari asosida tanqidiy fikrlashning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Bu modelda tanqidiy fikrlashning shakllanishi: motivatsion, bilish, reflektiv va faoliyat bosqichlarida tizimli integratsiya asosida amalga oshiriladi.


Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tanqidiy fikrlovchi shaxs – bu dalil va asoslar asosida xulosa chiqaruvchi, turli pozitsiyalarni baholovchi, mustaqil fikr yurituvchi, noaniqlik sharoitida ratsional qaror qabul qiluvchi va ijtimoiy faol shaxs

sifatida shakllanadi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi talabning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida, ma'naviy qadriyatlarni anglashida, ijtimoiy ong va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash, mohiyatan, ijodkorlik, tahlil, baholash, konseptual fikrlash va mustaqil xulosa chiqarishning uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi. Bu faoliyat inson tafakkurining yuqori bosqichiga mansub bo'lib, g'oyalarni yangi kontekstda tahlil qilish va ularni qayta talqin etish orqali amalga oshadi. Shu jihatdan, tanqidiy fikr yuritish – bu murakkab, interaktiv va ko'p bosqichli bilish jarayoni bo'lib, u o'zaro bog'liq tafakkur bosqichlarining uzluksiz kechishini talab qiladi.

Tanqidiy fikrlaydigan shaxs doimo ratsional yondashuvga tayangan holda harakat qiladi. U turli tashqi bosimlar, manipulyativ axborotlar va noto'g'ri g'oyalarga nisbatan immunitetga ega bo'lib, ongli tanlovlar va asosli qarorlar qabul qilish salohiyatiga ega bo'ladi. Bunday shaxsda mustahkam ijtimoiy pozitsiya, shaxsiy axloqiy mezonlar va o'z qarashlariga sodiqlik mavjud bo'ladi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash – bu inson tafakkurining yuksak shakli bo'lib, u shaxsning intellektual mustaqilligini ta'minlaydi, jamiyatdagi faol va ongli ishtirokchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan shu bois, ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralishi lozim.

Mazkur xulosalarga mos tarzda tanqidiy tafakkurning rivojlanganlik mezonlari sifatida ushbu belgilab olindi:



1-rasm. Tanqidiy tafakkurning rivojlanganlik mezonlari

Umuman olganda, tanqidiy fikrlash shaxsiy taraqqiyot, ijtimoiy faollik va kasbiy salohiyatning negizi hisoblanadi. Pedagogik ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish – bu faqatgina muayyan kompetensiyani rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon, avvalo, talabning intellektual salohiyati va madaniy qadriyatlar tizimini shakllantirish, uni ijtimoiy hayotda faol, ongli va mas'uliyatli ishtirok etishga tayyor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Shuning uchun zamonaviy metodik yondashuvlar orqali tanqidiy fikrlovchi avlodni tarbiyalash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi shart.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik sharoitlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tatbiq qilinishi ta'lim sifati va kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

Dissertatsiyaning **“Ona tilini o‘qitish metodikasi fani asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ona tili o‘qitish metodikasiga innovatsion yondashuv asosida talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish mazmuni, ona tilini o‘qitish metodikasiga innovatsion yondashuv asosida talabalarini tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli va pedagogik ta’lim jarayonida talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

XXI asr pedagogikasi shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan, xususan, “RKCHP texnologiyasi (o‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish)”dan samarali foydalanishning ilmiy asoslari ochib berildi. RKCHP texnologiyasi yordamida talabalar matn bilan ishlash, tahlil qilish, fikr yuritish va o‘z xulosalarini asoslash malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunda “Challenge–Understanding–Reflection” bosqichlariga asoslangan o‘quv modeli orqali tanqidiy fikrlash bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Turli interfaol metodlar – “G‘oyalar savati”, “Klaster”, “Fishbone”, “To‘g‘ri-noto‘g‘ri” kabi texnikalarning amaliy qo‘llanilishi talabalarning bilish faolligini oshirishda samarali natijalar bergani tadqiqot davomida aniqlangan. Shuningdek, muammoli ma’ruzalar vositasida tanqidiy fikrlash jarayoniga jalb qilish, talabalarni yangi bilimlarni mustaqil kashf etish va tahliliy qarorlar qabul qilishga undash imkoniyatlari yoritildi. Bunda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik, fikrlar almashinuvi va erkin muhokama madaniyati shakllantiriladi.

Tadqiqotimizda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonining asoslari belgilanib, metodologiya talablariga rioya qilgan holda, kommunikativlik, matnga asoslanganlik, bir-birini to‘ldirish, o‘quv faoliyatidan hayotiy faoliyatga boshqariluvchan o‘tish va refleksiya tamoyillari aniqlandi va bu orqali Ona tilini o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash metodikasini rivojlantirishning didaktik modeli takomillashtirildi (1-rasmga qarang).

Mazkur modelda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun taqdim etilgan materiallar o‘xshashligi va farqlari aniqlanadi hamda natijalar ijodiy va umumta’lim maktablari bo‘yicha qiyoslangan.

Moslashuvchanlik – insonning o‘zgaruvchan sharoitlarga, yangi vaziyatlarga yoki muhitga tez va samarali moslashish qobiliyatidir. Moslashuvchan insonlar qiyinchiliklar yoki o‘zgarishlarga qarshi turmay, ularga moslashib, ularning yaxshi tomonlarini qabul qilishadi. Ushbu xususiyat hayotning har bir sohasida – oilaviy, ijtimoiy va professional hayotda muhim rol o‘ynaydi.

Xatolarni tuzatishga tayyorlik – tanqidiy fikrlashning rivojiga ta’sir qiluvchi madaniy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarur. Turli jamiyatlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan yoki unga qarshilik ko‘rsatadigan o‘ziga xos an’ana va qarashlarga ega bo‘lishi mumkin.

Madaniy to‘siqlarni engib, odamlarning bir-biridan o‘rganishi uchun sharoit yaratish ham muhimdir. Madaniyatlararo almashinuv orqali odamlar o‘z dunyoqarashlarini kengaytiradilar va muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga o‘rganadilar, bu esa ularning fikrlashini yanada boyitadi.

Tizimlilik – bu ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega, ikki va undan ortiq qismlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi.

Kognitiv va kommunikativ – “Kommunikatsiya – bu murakkab dinamik tizimlar va uning axborotni qabul qilish, to‘plash, o‘zgartirish imkoniga ega qismlari o‘rtasida axborot almashinuvi”. Kommunikatsiya – bu axborotni o‘ziga xos almashish, uning emotsional va intellektual mazmunini aks ettirish jarayoni. Kommunikatsiya – insonlarning kognitiv (kognitiv – shaxsning tashqi ma’lumotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini bildiruvchi atama) va mehnat faoliyati jarayonida o‘zaro munosabatlarga kirishishining o‘ziga xos shakli sifatida noverbal va verbal harakatlar natijasida axborot olish jarayoni.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim – talabani fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Faoliyatlilik – ilmiy izlanishlarimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuvning tarkibiy asoslarini quyidagicha takomillashtirishni lozim topdik. Maqsadli motivli yondashuv qiziqish va motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilish qadriyat, u pedagogning ijodiy faoliyatida ko‘zga tashlanadi. Mazmunli yondashuv o‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni aks ettiradi Tezkor – faoliyatli yondashuv o‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek amaliy (maxsus texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi).


Tamoyillar: Kommunikativlik tamoyili – bu boshqalar bilan muloqotda bo‘lishga tanqidiy fikr bilan yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Matnga asoslangan tamoyili – O‘qish va yozishdagi samarali amaliyotlar matnga asoslangan samarali ta’limning muhim tarkibiy qismidir. Ular talabalarga matnlar bilan faqat mazmunini emas, balki uning oqibatlari, dolzarbligi va shaxsiy ahamiyatini ham hisobga olgan holda o‘ylangan holda ishlash imkonini beradi. Reflektiv o‘qish va yozish talabalarni ma’lumotni passiv iste’mol qilishdan tashqariga chiqishga undaydi, tanqidiy fikrlashni va chuqurroq tushunishni rivojlantiradi. O‘qituvchilarning o‘qish va yozish faoliyatiga aks ettirish amaliyotini qo‘shishi, natijada talabalarga matnlarni tushunish va o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishning turli usullarini o‘rganadi.

Bir-birini to‘ldirish tamoyili – bu pedagogik jarayonda subyektlarning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, pedagogikaning “tarbiya”-“o‘zini-o‘zi tarbiya”, “ma’lumot”-“mustaqil ma’lumot”, “ta’lim”-“mustaqil ta’lim”, “rivojlanish” va “tarbiyaviy munosabatlar” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi hamda biri-ikkinchisining, ikkinchisi-uchinchisining ta’minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi

O‘quv faoliyatidan hayotiy faoliyatga tahlil qila olish qobiliyati bilan o‘tish - ma’lumotlar sifatli tematik tahlil va kontent chastotasi tahlili yordamida qayta ko‘rib chiqiladi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun taqdim etilgan

materiallar o'xshashligi va farqlari aniqlanadi hamda natijalar ijodiy va umumta'lim maktablari bo'yicha qiyoslanadi.



2-rasm. Ona tili o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlarida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish modeli

Refleksiv – baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi.

Biz taqdim qilgan modelda talabalarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan: tizimli, faoliyatli, kognitiv-kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan. Ular tanqidiy fikrlashning o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv komponentlari bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashning shakllanishida motivatsion va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosiy omil ekanligi ilmiy asoslab berildi. Motivatsiya talabalarning o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojini faollashtirsa, refleksiya esa bilimlarni qayta ko‘rib chiqish, tahlil qilish va o‘z fikrini asoslash imkoniyatini beradi. Ushbu ikki komponent uyg‘unlashuvi tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida talabaning shakllanishiga asos yaratadi.

Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash jarayonini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu shart-sharoitlar qatorida: izlanish madaniyatini rivojlantirish; tanqidiy fikrlashni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish; faol ta‘lim shakllari va interfaol metodlardan foydalanish; pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta‘minlash; shakllantiruvchi baholash amaliyotlarini joriy etish kabi jihatlar ajratib ko‘rsatildi.

Ilmiy asoslangan didaktik model doirasida talabalarni faol, mustaqil, ijodkor va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish mexanizmlari tizimlashtirildi. Modelda kommunikativlik, kognitiv-kommunikativ yondashuv, matnga asoslangan faoliyat, reflektiv yozish va fikr almashinuvi asosiy metodologik yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatildi.

Tadqiqotda shuningdek, tanqidiy fikrlash fenomeniga oid falsafiy va kognitiv-psixologik yondashuvlar tahlil qilindi. Mazkur yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashning mohiyati, shakllanish mexanizmlari va amaliy tatbiq etish yo‘llari keng yoritildi. Pedagogik tahlil va ijodiy faoliyatga asoslangan interfaol dars metodikasi orqali talabalarning shaxsiy fikr yuritish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari shakllantirilishi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi.


Tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va uning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobda keltirilgan.

Tashkil qilingan tajriba-sinov ishlarida shular aniqlandiki, talabalarda mazkur nazariyalarni takomillashtirishda tanqidiy fikrlashni o‘rgatishga doir mavzularni o‘qitish sohadagi ishlarda samara keltiradi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ona tili o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida o‘quv jarayonlarining aksiopedagogik imkoniyatlariga tayanilgan holda amalga oshirilgan.

